



Formation of intellectual and cognitive skills in preschool children during scientific research activities

Durdona SHARAFUTDINOVA¹

Institute for Retraining and Professional Development of Directors and Specialists of Preschool Education Organizations

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2025
Received in revised form
28 February 2025
Accepted 20 March 2025
Available online
15 April 2025

Keywords:

intellect,
state requirements,
education, upbringing,
standard,
"Ilk qadam" (First Step),
pedagogy,
preschool education,
personality,
intellectual work.

ABSTRACT

The article analyzes the formation of intellectual and cognitive skills in preschool-aged children based on state requirements. The main objectives of the educational process are outlined.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3/S-pp79-83>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ilmiy tadqiqot faoliyatlari jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual-anglash malakalarini shakllantirish masalalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

intellekt,
davlat talablari,
ta'lim,
tarbiya, standart,
"Ilk qadam",
pedagogika,
maktabgacha ta'lim,
shaxs,
aqliy mehnat.

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual-anglash malakalarini shakllantirish masalalari davlat talablari asosida tahlil qilingan. Ta'lim jarayonining asosiy vazifalari belgilab berilgan.

¹ Researcher, Institute for Retraining and Professional Development of Directors and Specialists of Preschool Education Organizations.

Задачи формирования интеллектуально-познавательных компетенций дошкольников в процессе научно-исследовательской деятельности

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интеллект, государственные требования, образование, воспитание, стандарт, "Илк кадам", педагогика, дошкольное образование, личность, умственный труд.

В статье анализируется формирование интеллектуальных и познавательных навыков у детей дошкольного возраста на основе государственных требований. Определены основные задачи образовательного процесса.

Ta'lim-tarbiya yo'nalishidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi yosh avlodni intellektual, ma'naviy va ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bir qatorda tarbiyalanuvchilarda erkin fikrlash va atrof-muhitga bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish kabi yo'nalishlarni belgilab berdi. Amalga oshirilgan faoliyatlar ta'lim jarayoni ishtirokchilaridan muntazam ravishda o'z ustida ishlab borishni, dunyoqarashini kengaytirishni, bolalarni bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib borishni va ularning tafakkurini rivojlantirishni talab etadi.

Maktabgacha yosh bolaning insonga xos bo'lgan sifatlari va aqliy salohiyatini rivojlanishi uchun poydevor yaratiladigan davr sifatida tarbiyalanuvchilarni o'zini-o'zi namoyon etishga intilishini ko'rsatib beradi. Bolaning o'sishi, rivojlanishi, o'rganishga va bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davrda ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual-anglash malakalarini rivojlantirish bozor iqtisodiyotida kelib chiqayotgan yangidan-yangi muammolarni ilmiy asosda hal qila oladigan shaxsni tarbiyalashda bosh masala hisoblanadi. Buning uchun esa bolalarda intellektual-anglash malakalarini rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatini o'rgatish zarur masalalardan biridir.

Интеллект – tafakkur – tushunish, tushunib etish – aqliy qobiliyatlar, idrok qilish faoliyati jarayoni, tushunish, mulohaza qilish, aqliy xulosa chiqarish yordamida idrok qilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, u bola shaxsidan bo'layotgan voqea hodisalarni tushunish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni talab etadi.

Uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi bo'lgan maktab ta'limiga tayyorlashda tarbiyalanuvchilarning aqliy rivojlanishi yetarli bo'lishini ta'minlash tashkilot pedagoglarining javobgarligini oshiradi. Ya'ni, bolalar bilan ishlaydigan barcha tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual-anglash malakalarini shakllantirishda davlat talablari va dasturlarni ta'limiy-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish usullarini to'liq o'zlashtirgan bo'lishi talab etiladi.

Bugungi kunda bolalarning intellektual-anglash malakalarini shakllanganlik darajasi voqea-hodisalar o'rtasidagi turli bog'liqlik va munosabatlarni ko'ra bilishida, fikrlash doirasining kengligida, umumiy lashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. 3–7 yoshli bolalarda

intellektual-anglash malakalarini shakllantirishda uchraydigan muammolardan eng asosiy sabablardan biri bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'liq qamrab olinmaganligi, ota-onalarning ta'limga ishtirokchi sifatida qatnashmayotgani, bolalarni intellektual-anglash malakalarini rivojlantirish uchun o'yinlar, o'yinchoqlarni va guruhlarda rivojlantiruvchi muhitni yetarli emasligi deb qaraladi.

“Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi” qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talab”lari 5 ta rivojlanish sohasini o'z ichiga oladi. Uning to'rtinchi rivojlanish sohasi bo'lgan “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi intellektual-anglash malakalari, elementar matematik malakalar, tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat kabi kichik sohalardan iborat.

Davlat talablariga ko'ra katta guruh tarbiyalanuvchilarining **intellektual-anglash malakalari** kichik sohasi quyidagi ko'rsatkichlardan iborat:

- rasm asosida syujetni eslab qoladi va gapiradi;
- ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi;
- turli hayvonlarning yashash joylarini aytadi (baliq suvda yashaydi, bo'ri o'rmonda);
- geografik tushunchalarni biladi (yer, dengiz, tog', daryo);
- oddiy sabab va oqibat aloqalarni tushunadi (yomg'ir yog'yapti – panaga o'tish kerak);
- sinash va xatolarni tahlil qilish yo'li bilan amaliy vazifalar yechimini topishga harakat qiladi (mashinani yurg'izish uchun kalitni burash kerak);
- obyektlarni tizimga soladi.

Elementar matematik malakalar kichik rivojlanish sohasi orqali quyidagilarni bilib oladi:

- geometrik shakllarni biladi va ularni predmetlar orasidan ajratadi; predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga ko'ra taqqoslaydi;
- predmetlar guruhini taqqoslaydi;
- muloqot davrida matematik terminologiyani qo'llaydi;
- belgilar tizimini tushunadi (son va belgilarni qo'llagan xolda +, -, =);
- 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarni to'g'ri va teskari sanaydi;
- predmetlarni soni va sanog'iga qarab taqqoslaydi;
- predmetlar tengligi va tengmasligi guruhlarini aniqlaydi va ularni bir-biri bilan taqqoslaydi.

Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat kichik sohasining ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- tabiat hodisalarining turli omillarga bog'liqligini tushunadi;
- tabiatdagi o'zgarishlar sababini tushuntirib bera oladi (masalan, qor erishi);
- insonlarning atrof olamga ta'sirini tushunadi (ekin ekish, hosil yig'ish);
- tabiiy materiallardan qo'l ishlarini yaratishni biladi, ish bosqichlarini belgilaydi;
- mustaqil qurib yasashi mumkin;
- jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi;
- insonlar hayotida tabiatning ahamiyatini anglab yetadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida yuqorida keltirigan indikatorlarni bolalarga o'rgatish orqali bolalarda intellektual-anglash malakasi shakllanadi va maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlanadi.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida katta guruh tarbiyalanuvchilarining intellektual-anglash malakalarini shakllantirishda bilish kompetensiyasi, bilim olish, o‘qish va o‘rganish, mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyatini rivojlantirish lozim. Harakat va o‘zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof-olamdagi yangi ob’yektlarni o‘rganadilar va kashf etadilar. Guruhdagi boshqa tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda o‘ynaladigan o‘yin va kattalar bilan o‘zaro muloqot jarayonida kuzatadilar va tajriba o‘tkazadilar. Mavjud muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlarni izlab topadi. Bolalar o‘zlarining kashfiyotlari bilan o‘rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar. Katta guruh tarbiyalanuvchilari muammoni hal qilishga e’tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrofdagi dunyoni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo‘yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining guruh xonalarida tashkil etilgan “Ilm-fan va tabiat”, “Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazlarida tajriba o‘tkazish, loyiha tuzish, bolalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual-anglash malakalarini shakllantirishda ilmiy tadqiqotlar doirasida olib boriladigan faoliyatlar mazmunida quyidagi vazifalar:

- 5-6 yoshdagi intellektual-anglash malakasini shakllantirish jarayonining optimal yo‘llarini saralash;
- maktabgacha katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarni intellektual-anglash malakasini shakllantirish jarayoni mexanizmlarini takomillashtirish;
- bolalarni intellektini rivojlantirishga xizmat qiladigan zamonaviy texnologiyalarni aniqlash;
- metod va texnologiyalarni tizimlashtirish;
- innovatsion yondashuvlar vositasida bolalarning intellektual-anglash malakasini shakllantirishning samarali yo‘l va vositalarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etishga oid metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Intellektual-anglash malakalarini shakllantirishda bolalar fikrlash, isbotlash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, asosiy ma’lumotlarni ajratib olishga yo‘naltiriladi. Tarbiyalanuvchilarda aqliy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, o‘z-o‘zini anglash va nazorat qilishga o‘rgatish orqali tafakkur kengayadi hamda fikrlash jarayoni rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim-tarbiya mazmuni va sifatini oshirish masalalariga davlat siyosati darajasida qaralmoqda hamda tizimda berilayotgan ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, bolalarni intellektual-anglash malakalarini shakllantirish maktabgacha pedagogika fani oldidagi dolzarb masala sanaladi. Shaxs hayotida muhim bosqich bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimi kelajak avlodni tarbiyalash va jamiyatning intellektual salohiyati, ta’lim sohalarini tub ildizidan boshlab rivojlanishiga poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori.

3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. T.:2020-yil.

4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. T.:2022-yil.

5. Shin A.V, Mirziyoeva Sh, Grosheva I. va boshqalar. Shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish. Metodik qo‘llanma. T.: 2020 y. – 120 bet.